# Maktabda inkluziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish

Gavhar Eryigitova
Iroda Saxadmurodova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo’lgan maktabda inkluziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish to’g’risida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** qaror, qonun, ijtimoiy pedagogika, maktab, inkluziv ta’lim, korreksion sinflar

# Organization of inclusive education and primary correctional classes at school

Gavhar Eryigitova
Iroda Sakhadmurodova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

**Abstract:** This article deals with the organization of inclusive education and elementary correctional classes in school, which is one of the current topics today.

**Keywords:** decision, law, social pedagogy, school, inclusive education, correctional classes

Alohida ta’limga ehtiyoji bor bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarordaga asosan inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan barcha texnologiyalarni ishlab chiqish va uni takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini ham tashkil qilish vazifalari yuklatilgan. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab respublikamiz miqyosida umumta’lim muassasalarida tajriba sinovi sifatida inklyuziv ta’lim joriy etildi.


(cc) BY

Birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar yetti yoshga to‘ladigan yilda boshlab qabul qilinadi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi uchun umumta’lim maktablariga belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat beriladi.

Inklyuziv ta’lim subyektlarini psixologik - pedagogik qo‘llab-quvvatlash alohida ta’lim ehtiyojli bor o‘quvchilar kamsitilmasdan sifatli ta’lim olishi, rivojlanish buzilishlarini tuzatishi va ijtimoiy moslashishi, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordamini ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko’zda tutiladi.

Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:

- eshitishda nuqsoni bor bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qolishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar kiradi);
- ko‘rishda nuqsoni bor bo‘lgan bolalar (rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan va ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanishda yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida juda og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, psixik-nutqiy, dizartriya rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, amputatsiya, poliomiyelit, osteomiyelit, miopatiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi - pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- ruhiyat va hulq-atvorning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
- tutqanoq holatida bo‘lgan, intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmaydi).

Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot ma’lum bir yo‘nalishdagi ta’lim olish, shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojli bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish orqali eng qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratish lozimdir.

Shunday qilib, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashi rivojlantirish va takomillashtirish ta’lim modelida tashkiliy, uslubiy axborot, huquqiy va kadrlar muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi.


(cc) BY

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo`yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo`llanma. T-20152.

2. N.G`.Komilova. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. T.-2007

3. Ta'lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostika vositalaridan foydalanish (Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va tashxis markazlari psixologilari uchun uslubiy qo'llanma) /Tuzuvchi psixol. fan. nomz., dos. N.A.Sog'inov. - Toshkent - 2001. - 40 b.

4. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari.- 2008, 314 bet.

5. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

6. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

7. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64-67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

8. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.


(cc) BY